e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/v4vxmz76

NAJMIDDIN QAZVINIY TA'LIMOTIDA HARAKAT VA UNING TURLARI

Aliqulov Rahmonqul Abduqayumovich
Buxoro davlat texnika universiteti, mustaqil izlanuvchi.
e-mail: aliqulovraxmonqul777@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0002-7188-1549

Annotatsiya.
Maqolaning ushbu qismida Najmiddin Qazviniyning harakat mohiyati, uning imkoniyat (bil-quvva) va voqelik (bil-fe'l) o'rtasidagi bosqichma-bosqich jarayon ekanligi, shuningdek, harakatning fazo va vaqtdagi tabiati tahlil qilingan. Muallif Zenon aporiyalariga javoban harakatning uzluksizligini ong va tashqi olam (xorij) ikkilik asosida asoslab beradi.
Kalit so'zlar: harakat, bil-quvva (potensial), bil-fe'l (aktual), kamolot, masofa, tasalsul, ibtido va intiho, ontologik o'zgarish.

ДВИЖЕНИЕ И ЕГО ВИДЫ В УЧЕНИИ НАДЖМИДДИНА КАЗВИНИ

Аликулов Рахмонкул Абдукаюмович
Бухарский государственный технический университет, независимый исследователь.

Аннотация.
В данной части статьи анализируются взгляды Наджмиддина Казвини на сущность движения, его понимание как поэтапного процесса перехода от возможности (биль-кувва, потенциального состояния) к действительности (биль-фи'ль, актуальному состоянию), а также природа движения в пространстве и времени. В ответ на апории Зенона автор обосновывает непрерывность движения на основе разграничения сознания и внешнего мира (хоридж).
Ключевые слова: движение, биль-кувва (потенциальное), биль-фи'ль (актуальное), совершенство, расстояние, бесконечная последовательность, начало и конец, онтологическое изменение.

MOTION AND ITS TYPES IN THE PHILOSOPHICAL TEACHINGS OF NAJM AL-DIN AL-QAZWINI

Aliqulov Rahmonqul Abduqayumovich
Bukhara State Technical University, Independent Researcher.

Abstract.
This section of the article analyzes Najm al-Din al-Qazwini's views on the essence of motion, his understanding of motion as a gradual process of transition from potentiality (bil-quwwa) to actuality (bil-fi'l), and the nature of motion in space and time. In response to Zeno's paradoxes, the author substantiates the continuity of motion through the distinction between consciousness and the external world (kharij).
Keywords: motion, bil-quwwa (potentiality), bil-fi'l (actuality), perfection, distance, infinite regress, beginning and end, ontological change.

Kirish. Mutafakkir harakatning mohiyatini quyidagicha keltiradi: "Mavjud narsa jamiki jihatlardan bil-quvva (imkoniyat) bo'lishi mumkin emas. Aks holda, bil-quvva bo'lishi ham bil-quvva bo'lar edi. Aksincha, har jihatdan yoki ayrim jihatlardan bil-fe'l (voqelik) bo'ladi. Barcha bil-quvva narsalarning hosil bo'lishi bil-fe'ldir, yo bir daf'ada yoki bosqichma-bosqich. Birinchisi – mavjud bo'lmoq, ikkinchisi esa harakatdir. Ya'ni, harakat – quvvatdan fe'lga bosqichma-bosqich chiqishdir. U jismlarda ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisa hamda uning ro'y berishi jism uchun kamolot (tugallik) hisoblanadi. Faqat harakatning boshqa kamolotlardan farqi shundaki, uning o'zga narsaga yetkazish (olib borish)dan bo'lak haqiqati yo'q. Shunday qilib, harakatning ikkita xususiyati mavjud. Biri shuki, hosil bo'lishi mumkin bo'lgan narsa mavjud bo'lishi kerak, toki yetkazish unga yetkazish bo'lishi uchun. Ikkinchisi shuki, mazkur yo'nalish modomiki shunday ekan, uning bir qismi bil-quvva bo'lib qolaveradi. Negaki harakatlanuvchi narsa harakatlanuvchi bo'lishi uchun maqsadga yetmasligi kerak (ya'ni, yetib borsa, harakat to'xtaydi)". [1.192.] Demak, harakat uning bir qismi bil-quvva bo'lib qolishiga hamda yetkazilayotgan joy bil-fe'l (voqelikda) hosil bo'lmasligiga muhtoj. Shunday qilib, jism bir makonda bo'lsa-yu, boshqa bir makonda mavjud bo'lishi ham mumkin bo'lsa, uning ikki imkoniyati bo'ladi: ana o'sha joyda bo'lish imkoni va u tomonga yo'nalish olish (harakatlanish) imkoni. Bu ikkisi ham kamolotdir.

Najmiddin Kotibiy harakatni shunchaki jismning makondagi shakli emas, balki borliqning rivojlanish kamoloti sifatida tahlil qiladi. Mutafakkir fikricha, harakat mavjudotlarning "noqis" holatidan "komil" holatga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni hisoblanadi. [1.192.] Ya'ni, harakat birlamchi kamolot, jismning maqsadga erishishi esa ikkilamchi kamolotni tashkil qiladi. Birlamchi kamolot jismning mavjud bo'lishi va vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan asosdir. Harakat ham jismning maqsadga yetishi uchun kerak. Demak, harakat maqsad emas, balki maqsadga erishish vositasidir. Ikkilamchi kamolot jism mavjud bo'lgandan keyin, uning maqsadga yetganidan so'ng kasb etadigan sifatidir. Ikkilamchi

ISSN 3060-5059 (Online)

kamolot – bu jism mavjud bo‘lganidan keyin, uning maqsadga yetganidan so‘ng kasb etadigan sifatlardir. Imkoniyatning voqelikka o‘tishi o‘rtasida bosqichma-bosqich jarayon mavjud. Masalan, daraxtning urug‘i hali daraxt emas, ammo u daraxt bo‘lish imkoniyatiga ega. Agar urug‘ birdaniga daraxtga aylansa, biz undagi “o‘sish” va “o‘zgarish” jarayonlarini bilmas edik. Daraxtning meva berishi ikkilamchi kamolotdir.

Falsafiy adabiyotlarda imkoniyat va voqelik deb olamdagi narsa va hodisalar taraqqiyotining davomiyligini, ularning bir-biriga o‘tib turishini anglatuvchi kategoriyalarga aytiladi. Ibn Rushd fikricha, “Modda o‘zida barcha shakllarga ega bo‘lib, ularni o‘zidan chiqaradi. U hech vaqt shaklsiz bo‘lmaydi, xuddi shuningdek, shakl ham moddadan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi. Agar modda va shakl oliy yagonalikda bir-biriga mos tushsa, unda imkoniyat va voqelik ham bir-biriga to‘g‘ri keladi. Imkoniyatning voqelikdan farqi nisbiy xususiyatga ega. Agar dunyo abadiy bo‘lsa, barcha mumkin bo‘lgan narsalar ertami yoki kechmi voqelikka aylanishi lozim. Harakatning manbai moddaning o‘zidadir. Moddadan tashqari unga harakat va rivojlanish beradigan hech qanday sababiy shakl yo‘q”. [2.139.]

Najmiddin Qazviniy harakatning mavjudligi uchun ikkita zaruriy shartni ko‘rsatib o‘tadi. Mutafakkir fikricha, bu shartlarsiz harakat mavjud bo‘la olmaydi. Birinchi shart – subyektning (jismning) voqelikda mavjudligi. [1.192.] Harakat o‘z-o‘zicha, mustaqil mavjud bo‘lmaydi, doimo bir asosga muhtoj. Ya’ni, harakat biror jismning harakatidir. Agar jism bo‘lmasa, harakat ham bo‘lmaydi. Ikkinchi shart – imkoniyatning (quvvatning) saqlanib qolishi. Harakat davom etayotgan har bir lahzada uning bir qismi doimo bil-quvva bo‘lib qolishi kerak. Nega? Chunki agar harakatning hamma qismi bil-fe’l holatga o‘tib ketsa, bu harakatning to‘xtaganini va maqsadga to‘liq erishilganini bildiradi. [1.192.] Demak, harakat jarayonida erishilmagan, hali “oldinda” turgan maqsad bo‘lishi kerak. Shuning uchun harakatning har bir lahzasida “hali bosib o‘tilmagan yo‘l” mavjud.

Zenon aporiyalarida harakat va sukunat, yagonalik va ko‘p xillik, cheklilik va cheksizlik, uzluklilik va uzluksizlik orasidagi o‘zaro aloqadorlik kabi muhim masalalar qo‘yilganligi sababli ular hamisha falsafa, fizika, matematika va boshqa fanlarning diqqat markazida bo‘lgan. Zenon fikriga ko‘ra, “harakat ziddiyatli xarakterga ega bo‘lib, bir-birini inkor etadigan xulosalarga olib keladi”. [4.32.] Faylasuf “Dixotomiya” (“Ikkiga taqsimlash”) va “Axilles va toshbaqa” aporiyalari orqali ushbu fikrini isbotlashga harakat qiladi.

Zenonning “Dixotomiya” aporiyasida keltirilishicha, harakatdagi jism yo‘lning oxiriga yetib borish uchun avval yo‘lning yarmini, keyin qolgan yarim yo‘lning yarmini va hokazolarni bosib o‘tmog‘i zarur. [4.33.] Demak, shunday cheksiz taqsimlanish hosil bo‘ladi. Natijada faylasuf harakat ziddiyatli xarakterga ega bo‘lgani sababli borliqqa xos emas, demak, aslida harakat yo‘q, degan xulosaga keladi.

Najmiddin Qazviniy harakatning fazo va vaqtda bo‘linish muammosini kalom ilmi nuqtayi nazaridan ochib beradi. Agar harakat mavjud bo‘lsa, u masofaga bog‘liq bo‘ladi. Masofa bo‘linadigan bo‘lsa (masalan, metrni santimetrlarga, millimetrlarga bo‘lish mumkin), harakat ham bo‘linishi kerak. Harakat ham bo‘laklarga (kichik harakatlarga) ajralishi mumkin degan masalani mutafakkir quyidagicha tahlil qiladi: “Harakatning bo‘laklanishi uning mohiyatini buzmaydi, balki uning masofaviy tabiatini anglatadi”. [1.192.] Harakatni fikran bo‘laklarga bo‘lish mumkin, lekin bu bo‘laklarning har biri alohida mavjud emas. Harakat faqat yaxlit, uzluksiz mavjud bo‘ladi. Harakatning har bir “bo‘lagi” uning tarkibiy qismi bo‘lib, mustaqil harakat bo‘lmaydi. Ya’ni, bosqichma-bosqich bir-birini to‘ldiradi. Harakat bosqichli bo‘lib, uning bosqichlari bir-biridan ajralmagan butunning qismlaridir. Masalan, bir kishi bir kilometr yo‘l yurdi. Biz bu masofani metrlarga, santimetrlarga bo‘lib tasavvur qilishimiz mumkin. Ammo aslida bitta harakat bor. Bu harakatning har bir metri, har bir santimetri alohida harakat emas, balki yagona harakatning tarkibiy qismidir.

Najmiddin Qazviniy harakatni ikki darajaga – “oraliqdagi harakat” va “kesib o‘tuvchi harakat”ga bo‘lib, biri tashqi olamda, ikkinchisi esa inson ongida mavjudligini keltiradi. “Boshlang‘ich nuqtadan intiho nuqtasigacha bo‘lgan muttasil harakat a’yon (tashqi olam)da emas, azhon (ong)da mavjud, xolos. Negaki, harakatlanuvchining yetib borgan makoniga va tark qilgan makoniga nisbati bor. Ushbu ikki nisbat tasavvurda chizilsa, masofaning avvalidan oxirigacha cho‘zilib davom etadigan jarayon tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Xorij (tashqi olam)da mavjud narsa – jismning ibtido va intiho orasida bo‘lishidir. Bu amalga oshishi uchun esa jism masofa hududlarining hech birida turg‘un bo‘lmasligi kerak. Negaki, agar oradagi bir nuqtada turg‘un bo‘lganida, u jism harakatining nihoyasi bo‘lib qolar edi. Natijada u nihoyada mavjud bo‘lishi kelib chiqadi, ibtido va intiho o‘rtasida emas”. [1.193.] Moddiy olamdagi harakat har bir vaqtda muayyan bir nuqtada bo‘ladi, lekin “turg‘un” qolmaydi. Ya’ni, ibtido va intiho orasidagi harakatni anglatadi. Harakatning boshlanishi maqsadga yetishdan oldin bo‘lishi kerak. Agar yetib borish avval bo‘lsa, harakatning o‘ziga ehtiyoj qolmaydi. Ongdagi harakat butun bosib o‘tilgan yo‘lning yaxlitligini nazarda tutadi. Tashqi olamdagi harakat vaqt bo‘yicha nuqtalarda ketma-ket keladi, hech kim uni “avvaldan oxirigacha” ko‘rmaydi. Inson ongi bu nuqtalarni bir-biri bilan bog‘lab, bir yaxlit chiziqni hosil qiladi. Mutafakkirning harakat haqidagi ta’limoti borliqning o‘zgarish va rivojlanishda ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. نجم الدين دبيران كاتبي قزويني. حكمة العين. – تهران: انجمن آثار و مفاخر فرهنگی، ۱۳۸۴ ش. – ص. ۱۹۲–۱۹۳.
2. Falsafa: qomusiy lug‘at / tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 139.
3. Yo‘ldoshev S. Antik falsafa. – Toshkent, 1999. – B. 32–33.